

CHET TIL O`QITISH METODIKASIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH VA ULARNING AHAMIYATI

Mirzahmedova Ma`sumaxon

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

Annotatsiya: *Ushbu maqola chet tili o`qitish metodikasida interaktiv metodlar foydalanish, chet tili o`qitish metodikasi, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, interaktiv metodlar foydalanish va ularning til o`rganishdagi ahamiyati, uning samaradorlik tomonlari haqida so`z yuritadi.*

Kalit so`zlar: *chet tili, interaktiv metodlar, metod, chet til o`qitish metodikasi, innovatsion texnologiya, zamonaviy metodlar*

Hozirgi tez sur`atlar rivojlanib borayotgan jamiyatda chet tili o`zining bir qancha xususiyatlari bilan alohida o`rin tutadi. Bu xususiyatlar qatoriga ijtimoiylik, kognitivlik va taraqqiy etish sifatlarini kiritish mumkin. Hozirda, nafaqat mamalakatimizda balki butun dunyoda ingliz tilini o`rganish tobora rivojlanib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda, chet til o`qitish metodikasida yangi va zamonaviy metodlari yaratilmoqda. Bu metodlar tilni tez va oson, qulay o`rgatish uchun xizmat qilmoqda. Chet tili o`qitish, uning metodlari haqida suhbatlashishdan oldin chet tili nima ekanligi, uning foydalari haqida to`xtalib o`tish to`g`ri bo`ladi. Chet til - bu xorijiy mamlakat tilidir. Hozirgi kunda respublikamizda ingliz, ispan, arab, turk, fors, xitoy, fransuz tillari o`qitilib kelinmoqda. Nafaqat oliy ta`limda balki maktabgacha ta`lim muassasalarida ham bolalarga ingliz va rus tillari o`rgatilmoqda. Chet tili o`rganishning inson hayotidagi foydalari va o`rni alohidadir. Chet tilini bilgan insonning fikrlash doirasi va dunyoqarashi mutlaqo o`zgacha bo`ladi. Chet tilini oson va samarali o`rganish, albatta, uning o`qitish metodikasiga ham bo`g`liq. Chet til o`qitish metodikasi shunday majmuaki, u chet til o`rganishning turli maqsadlariga erishuvni ta`minlaydi. Bularga misol qilib amaliy, umumta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi kabi maqsadlarni keltirish mumkin. Professor Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiyning ta`rifiga ko`ra, chet tili o`qitish metodikasi tadqiq etuvchi fan bo`lib, u ta`limning maqsadlarini, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet til yordamida ta`lim-tarbiya berish usullarini o`rganadi. Ma`lumot o`rnida shuni aytib o`tish kerakki, metod atamasi ikki xil ma`noni anglatadi. Birinchi ma`nosi ta`lim berish usullari majmuasi bo`lib, ta`lim nazariyasi (masalan, og`zaki nutq o`rgatish metodlari, talaffuz o`rgatish metodlari)da qo`llaniladi. Ikkinchisi ma`nosi esa ta`limning yo`nalishi bo`lib, buni ko`proq o`qitish metodikasi tarixiga aloqador asarlarda ko`rishimiz mumkin.

Yuqorida aytib o`tilgan zamonaviy metodlar qatoriga interaktiv metodlarni kiritish mumkin. Shu o`rinda “Interaktiv metod nima?”, “Uning til o`rganishga qanday foydali tomonlari bor?” degan savollar tug`ilishi tabiiy holdir. Interaktiv metodlar- bu jamoa bo`lib fikrlash deb yuritiladi, ya`ni pedagogik ta`sir etish usullari bo`lib ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda o`qituvchi o`quvchilar bilan, o`quvchilar esa o`z do`stlari bilan birgalikda harakat qiladi, ya`ni ularga berilgan topshiriq yoki muammoli vaziyatga birgalikda, bir jamoa bo`lgan holda yechim topishadi. Bu ularning bir-birlarini to`liq tushunish va bir-birlari bilan oson til topishishlari uchun xizmat qiladi. Chet til o`qitish davomida foydalanilgan interaktiv mashg`ulotda o`rgatuvchi ham, o`rganuvchi ham o`zaro faol ishtirok etadi va barcha jarayon ularning hamkorligi bilan kechadi. Interaktiv metodlarning quyidagi o`ziga xos jihatlari mavduj. Interaktiv metodlar o`qituvchi bilan o`quvchining faol munosabatini, bir birini to`liq tushunishga asoslanadi. Metodlar jarayonida o`qituvchi va o`quvchi, balki o`quvchilar o`rtasida ham o`zaro hamkorlik kuzatiladi, bundan tashqari, o`quvchini dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va u butun bir jarayon davomida ishtirok etadi, ularning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Interaktiv metodlarning ijobiy tomonlari hisobga olingan holda hozirgi kunda ulardan keng foydalanilmoqda. Masalan, “Aqliy hujum” metodi. Bu turli fikrlar ishlab chiqish metodi bo`lib, dars davomida o`quvchilarning diqqatini jalb qilishga, ularning charchagan miyalarini biroz chalg`itishga va ularda qiziqish uyg`otishga katta yordam beradi. Bu metod davomida o`qituvchi o`quvchilarga ma`lum bir mavzu yuzasidan savol beradi. Berilgan savolga har bir o`quvchi o`z fikrlarini qisqa va aniq bildiradi. O`quvchilar tengdoshlari fikrini tinglab, ularni tahlil qilshadi va yaxshiroq fikr aytishga harakat qilishadi. Bu orqali ular tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Shunday metodlardan yana bir bu “Zinama-zina” metodidir. Ushbu mashg`ulot o`quvchilarni o`tilganyoki o`tilishi kerak bo`lgan mavzu bo`yicha yakka va kichik jamoa bo`lib fikrlash hamda xotirlash, o`zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to`plangan fikrlarni umumlashtirisha olishga o`rgatadi. Bu metodning maqsadi shundan iboratki, u o`quvchilar orasidagi birdamlik, ahillik va jamoa bo`lib ishlash, bir-birlarining fikrlarini hurmat qilgan holda o`z fikrlarini bildirishga yo`naltiradi. Shu bilan birga, bildirilgan fikrlarni to`g`ri tahlil qilib, ulardan ham nazariy, ham amaliy xulosa chiqarishga, o`zlarining fikrlari bilan jamoadagi tengdoshlariga ta`sir eta olishi, ya`ni o`rnak bo`la olishga o`rgatadi.

Demak, chet tili o`qitishning har bir jarayonida zamonaviy va interaktiv metodlardan samarali va o`rinli foydalanish o`rganuvchilarning qiziqishini orttirishga, ularni mustaqil va erkin fikrlashga, yangiliklar izlashga va bir jamoa bo`lib ishlashga undaydi. Bundan tashqari har qanday interaktiv metodlar o`quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasini va o`z fikrlarini aniq va ishonch bilan aytishga o`rgatadi. Bu metodlardan o`qituvchi o`rinli foydalansa, o`quvchilar bilan hamkorlikda ishlasa, har ikkala tomon ham ijobiy natijani qo`lga kirita oladi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, chet tillarini o`rganishga ehtiyoj yuqori darajada bo`lgan hozirgi zamonda yangi va innovatsion texnologiya va usullardan foydalanish bu jarayonning samarali bo`lishini belgilab beradi. Yurtimiz o`z ta`lim tizimiga oldiga buyuk va barkamol, har jihatdan yetuk va ilmli, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilib qo`ygan ekan, ta`lim sohasida ishlovchi biz kadrlar zamonaviy metodlardan unumli va o`rinli foydalangan holda yurt kelajagi hisoblangan yoshlarga chet tillarini mukammal o`rgatish orqali mamlakatimiz ravnaqiga, uning taraqqiy etishiga o`z hissamizni qo`shishimiz mumkin.